Umuman, so‘z-yuklamalar, affiks-yuklamalarning so‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslarga munosabati til va nutq oppozitsiyasi, matn, kommunikativ sintaksis, gap qolipi, kontekst gapning formal-konstruktiv va kommunikativ aspektlari kabilar asosga olingandagina atroflicha va to‘liq ochilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mengliyev B. Qomus. Toshkent, 2009, 224, 272-betlar.
(2). Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. Л., “ Наука”, 1978, с. 373.
(3). Nurmonov A. va boshq. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2001, 49-bet.
(4). Виноградов В.В. Русский язык. М., “Высшая школа”, 1986, с. 554.
(5). Shahobiddinova Sh. Ayrim qo‘shimchalarning mavqeyi xususida. “O‘TA”, 2000, № 5, 27–28-betlar.
(6). O‘zbek tili grammatikasi. II tom, Toshkent, “Fan”, 1976, 610 bet.

Matyakubov Xakimboy Xamidjanovich (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori)

O‘ZBEK VA INGLIZ TOPONIMIK TIZIMINI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY OMILLAR QIYOSI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi toponimlarning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydigan omillar muhokama qilingan. Jumladan, tarixiy, lingvistik va boshqa omillar muhokama qilinib, shu yo‘nalish bo‘yicha ish olib borgan ayrim lingvistlarning qarashlari tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar*: tarixiy omil, lingvistik omil, etnik omil, fermer.*

Матякубов Хакимбай Хамиджанович (доктор философии по филологическим наукам)

СРАВНЕНИЕ ОСНОВНЫХ ФАКТОРОВ, ОБРАЗУЮЩИХ УЗБЕКСКУЮ И АНГЛИЙСКУЮ ТОПОНИМИЧЕСКУЮ СИСТЕМУ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются факторы, играющие основную роль в формировании топонимов в узбекском и английском языках. В частности, обсуждаются исторические, лингвистические и другие факторы, а также анализируются взгляды некоторых лингвистов, работавших в этом направлении.*

Ключевые слова: *исторический фактор, языковой фактор, этнический фактор, фермер.*

Matyakubov Khakimboy Khamidjanovich (doctor of philosophy (PhD)

THE COMPARISON OF MAIN FACTORS FORMING THE SYSTEM OF TOPONYMS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation. *In this article, the main features that play a major role in making toponymys in both languages are analyzed. For example, historic, lingvistic and many other factors are discussed and the works of some lingvists who held research in this field are looked through.*

Key words: *historic factor, lingvistic factor, ethical factor, farmer.*

Kirish. O‘zbek va ingliz toponimlarini shakllantirgan asosiy omillar qiyosiy antroposentrik tahlili har ikkala xalq tafakkuri umumiyligi hayratlanarli, ya’ni biz kutgandan ham yaqin ekanini ko‘rsatuvchi faktlar taqdim qiladi. Barcha geografik nomlar o‘ziga xos ma’noga ega. Hech bir daryo, ko‘l yoki qishloq tovushlarning tasodifiy birikmasi bilan nomlanmagan. Ba’zan ma’lum bir daryo, qishloq, shahar nomiga izoh topish qiyin. Ammo ajablanarlisi shundaki, ona tilimizning ayrim eskirgan, unutilgan so‘zlarigina emas, xorijiy, hatto yo‘qolib ketgan “o‘lik” tillarning ba’zi izlari toponimlar tufayli bugungi kunda ham mavjud. Har bir so‘zning ortida ajoyib hikoyalar, ko‘pincha, afsonalar va ba’zan ajib mutoyibalar yotadi. Insoniyat tarixi geografik nomlar silsilasiga muhrlanganga o‘xshaydi, ular, o‘z navbatida, toponimlar, haqiqatan, o‘tmish tarixi shohidlaridir, deyishga asos bo‘la oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. R.Koates o‘z tadqiqotlarida Kanal orollari, Xempshir va Sasseks tarixiy grafliklari toponimlarining xususiyatlarini o‘rganib chiqdi va “A new explanation of the name of London”[1](1998) asarida Londonning yangi etimologiyasini taklif qildi. London nomini tushuntirishga urinishlar tarixi chizilgan, ularning hech biri muammoni hal qilishda muvaffaqiyat qozona olmagan degan xulosaga keldi. Taxminan, yangi yechim taklif qilinmoqda, bu esa uni Hans Krahe tomonidan o‘rnatilgan ma’noda, dastlab, Yevropa toponimiyasining Qadimgi Yevropa qatlamining bir qismini tashkil etgan keltlashgan daryo nomidan kelib chiqqan, ehtimol, kelt joy nomi bo‘lgan bo‘lishi mumkin, tarzida tushuntiradi. Taklifni qo‘llab-quvvatlash uchun topografik argumentlar, shuningdek, daryolar va ularning estuariyalari uchun inglizcha nomlashdan oldingi argumentlardan foydalaniladi. Taklif etilayotgan etimologiya,

[1] Coates R. A New Explanation of the Name of London. Volume96, Issue2, November 1998, p. 203–229.

shuningdek, hozirgi tushuntirishlar bilan bog‘liq ravishda shaharning o‘rta uelscha nomi Llundeinni hisobga olishda muvaffaqiyat qozonadi.

Tadqiqotning uzoq tarixi va toponimlarni o‘rganishga bag‘ishlangan juda ko‘p asarlar mavjudligiga qaramay, toponimlarni izohlashni qiyinlashtiradigan ko‘plab muammolar, toponimlarning manbalarini aniqlash bilan bog‘liq munozarali masalalar mavjud.

Ingliz toponimlarining shakllanish tarixi ancha murakkab. Ko‘pgina omillar mavjud, ulardan eng muhimi bu davrda Angliyani bosib olish to‘lqinlari aksariyat joy nomlari shu davrda shakllangan. Natijada ingliz joy nomlari turli tillardan kelib chiqdi: ingliz, lotin, qadimgi ingliz, qadimgi nors (ikki xil), norman va fransuz. Ushbu tillarning har biri mavjud toponimlarning shakllanishiga hissa qo‘shgan.

Tahlil natijalari. Tarixiy omil. Sharqiy Angliya hududi geografik obyektlarining tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy nominatsiyasi, uning hududiga turli etnik guruhlarning dastlabki joylashishi, kelt xalqlarining bu yerlarga kirib kelishi, rimliklar, skandinaviyaliklar tomonidan bosib olinishi bilan bog‘liq. Bu voqealarning barchasi tarixiy voqealar, odamlar hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, mehnat jarayonlari va malakalarini aks ettiruvchi nomlarning katta guruhini tashkil etdi.

Framlingham (Framlingem) – qadimgi ingliz tilidan toponim bo‘lib, rus tiliga tarjima qilinganda *fram* – fermer va *ling* – avlodlar, odamlar. Bu bizga ayni hududda fermer xo‘jaliklarida ishlaydigan xalqlar yashagan, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. *Littleport* (Littleport) – lotin va ingliz tillari mahsuli bo‘lgan toponim, rus tiliga tarjima qilinganda *little* – kichik, *port* – darvoza. Demak, toponimning ma’nosi: “kichik darvoza”.

Lingvistik omil. Sharqiy Angliya toponimiyaga boy bo‘lib, u fransuz, keltlar, norman, lotin, qadimgi ingliz va boshqa davlat mavjudligining turli bosqichlarida uni tashkil etgan tillarning boshqa ildizlariga asoslangan. Hayot davomida tillar o‘zgaradi: ba’zi so‘zlar kundalik hayotdan yo‘qoladi, boshqalari paydo bo‘ladi. Toponimikada ko‘pgina so‘zlar “asrab-avaylangan” shaklda saqlanib qolgan, ular yo unutilgan, yoki qo‘llanishdan butunlay yo‘qolgan.

Ilford (Ilford) toponimi lotin tilidan olingan bo‘lib, lotincha *ford* “kesish”, “o‘tish” degan ma’noni anglatadi. Toponim ma’nosi: *kesish, o‘tish*. *Burwell* (Beruem) toponimi qadimgi ingliz tilidan olingan qo‘shma toponim. U ikkita so‘zdan iborat: *well* – “quduq, chashma” ma’nosini anglatadi, *bur* – “turar joy” degan ma’noni bildiradi. Toponimning ma’nosi “quduq boshidagi qishloq”. *Bar Hill* (Bar Xill) – bu toponim qadimgi ingliz va britan tillaridan olingan. *Bar* so‘zi qadimgi ingliz tilidan kelib chiqqan va *qobon* ma’nosini beradi. Toponimning ikkinchi qismi *tepalik* deb tarjima qilingan. Toponimning ma’nosi: *cho‘chqa tepaligi*dir.

Etnik omil. Ingliz toponimlarining nomlari uchta asosiy guruhdan iborat bo‘lib, ulardan biri xalq toponimlari guruhidir. Bu nomlar anglo-sakson tuzilmalarining dastlabki bosqichlarida ishlatilgan. Xalq guruhi toponimlarining soni kam, lekin ular toponimlarning muhim turi hisoblanadi. Bugungi kunda Angliyada ko‘plab nomlar muhim ahamiyatga ega.

Masalan, fors tilidagi *dëz so‘*zini olaylik, hozirgi fors tilida *dez, diz* “qo‘rg‘on, qal’a” (bu so‘z *–diz,* keyinchalik, *-giz* shaklida O‘rta Osiyo va Eron toponimlari tarkibida ko‘plab uchraydi: *Xurramdiz, Ko‘handiz, Daragiz* kabi). Tojik tilida *diz, dez* “qo‘rg‘on, qal’a, istehkom” ma’nosida bo‘lib, eskirgan so‘zlar sirasidan joy olgan.[1] Boxtar tilidagi *diz(z)* “baland tog‘”; parfiyancha *diz* “qo‘rg‘on”, so‘g‘d tilidagi *ôyz,* monaviy bitiklaridagi *dyz*, so‘g‘d yozuvidagi xristian bitiklarida *dyz* “qo‘rg‘on, shahar”ni anglatadi. Demak, *diz* komponentining shakllanishi dastlab *tuproq* tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu tushuncha, keyinchalik, “qo‘rg‘on”, “qal’a” semalari tomon kengaygan. Shu o‘rinda *diz* komponenti “o‘rab olingan” ma’nosida o‘zbek tili leksikasidagi ayrim so‘zlar tarkibida ham mavjudligini qayd etish lozim. Leksikografik manbalarda fors tilidan o‘zlashma sifatida qayd qilinib kelinayotgan *fîrdavs* so‘zi *pari-daiza-, parädaiza-* aynan “devor bilan o‘rab olingan” degan ma’noni bildiradi. Keyinchalik, bu so‘z “bog‘” semasini kasb etgan. Shu tariqa, eroniy tillardan grek tiliga *napâôeiooç* bo‘lib o‘zlashgan. Ruscha *paradiz* (“jannat”) so‘zi fransuz tili orqali o‘tgan. Avestoviyning keyingi bosqichida *pairi-daëza-* “devor bilan o‘rab olingan, g‘ov bilan to‘silgan” ma’nolarida ishlatilgan.[2] Qadimgi fors tilida *pari-daida-* shaklida, klassik fors tilida *pälez, päliz* “bog‘”, tojikcha *poliz* “poliz” so‘zi (o‘zbek tilida ham shu shaklda o‘zlashgan), so‘g‘diy-monaviy *pröyz,* so‘g‘diy-xristian matnlarida *prdyz* “bog‘”, xorazmiy tilida *pröyzk*–“bog‘” shaklida uchraydi.[3]

[1] Фарҳанги забони тоҷикӣ. Дар ду ҷилд. Ҷилди 1, М., “Советская энциклопедия”, 1969, с. 369.

[2] Bartholomae Chr. Altiranisches Werterbuch. Strassburg, 1904, p. 865.

[3] Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Том 3, Москва, “Восточная литература”, 2003, с. 315.

Demak, mazkur so‘z ham o‘zbek tilida substrat qatlamga mansub so‘zlarning miqdori taxmin qilinganidan ko‘ra ko‘proq va tarqalish areali ancha kengligini ko‘rsatadi. Uning inglizcha jannat tushunchasini ifodalovchi *paradise* so‘ziga aloqadorligi R.Mahmudov tomonidan alohida qayd etilgan.[1]

Devor so‘zining shakllanishi ham *tuproq* tushunchasiga bog‘liq bo‘lib, u tarixan *daiza- //diza- uära-* “qo‘rg‘on devori”, “devor” ma’nosini anglatgan. Qadimgi fors tilida *dida-vära-*, o‘rta fors tilida *dewär*, monaviy bitiklarida *dyw'r*, klassik fors tilida *devär*, dari tilida *déwar*, tojikchada *devor, devol* (bu fonetik holat o‘zbek tilida ham kuzatiladi), hozirgi fors tilida *divär*, boxtar tilida *divar*, tot tilida *duvár* shaklida uchraydi. Bu so‘z yag‘nob (yangi so‘g‘d) tilida *divar, divör, davar, dawar, diwär, dwar* “eshik; chiqish joyi”, xorazmiyda *öβr, öfr [<var]*[2] tarzida qo‘llanilgan. Osetin tilida esa *dwar* shaklida bo‘lib, “eshik” ma’nosini anglatgan.[3]

V.N.Toporov fikricha, etimologik tahlil til fanlarining turli sohalari: fonetika, so‘z yasalishi, morfologiya, leksikologiyaning tahlil vositalari va usullarining sintezidir. Etimologik tahlilning maqsadi so‘zning kelib chiqishi muammosini hal qilishdir.

Etimologiya bilan birgalikda ular, ko‘pincha, tilshunoslikda istorizm haqida gapirishadi, chunki ba’zida tadqiqotchilar faqat tarixiy xarakterdagi xulosalarga kelishadi. Demak, etimologiya tilshunoslikning boshqa sohalariga qaraganda tarixiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq.[4] Ingliz toponimlari haqida gapirganda, ularni etimologik tahlil qilish uchun murakkab hodisa ekanligini ta’kidlash lozim. Buning sababi shundaki, Angliya toponimiyasi ko‘p asrlik rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, turli etnik guruhlar va tillar (keltlar, rimliklar, anglo-sakslar, skandinavlar va normanlar tillari) ta’sirida rivojlangan.

A.V.Urazmetova Buyuk Britaniya toponimlarini asl, o‘zlashtirilgan va gibridlarga ajratadi.[5] V.D. Belenkaya kelt, lotin, fransuz va skandinaviya tillaridan olingan toponimlarni ajratadi.[6] S.N.Basik semantik ma’noning shaffofligi mezoni asosida toponimlarni etimologik jihatdan yaqqol (to‘liq aniq semantik ma’noga ega toponimlar), etimologik jihatdan shaffof (etimologik tahlil natijasida ma’nosi ochilgan toponimlar), etimologik jihatdan noaniq toponimlar (ularning ma’nosini ochib bo‘lmaydi)ga ajratadi.

Xulosa. O‘zbek toponimiyasining asosini, albatta, turkiy qatlam tashkil qiladi. Toponimiyada dastlabki nomlar sodda bo‘lib, obyektning o‘z nomi bilan atalgan. Masalan, daryo, ko‘llar “suv” ma’nosini, tog‘lar “tog‘” ma’nosini beruvchi so‘zlar bilan nomlangan. Shunday bo‘lishiga qaramay, mazkur so‘zlarning tarixiy tavsifi ularning birdan shakllanmaganligi, o‘ziga xos tafakkur tarzi asosida yuzaga kelganligini ko‘rsatishi bilan birga, qardosh va noqardosh tillar lingvomadaniyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Bu umumiylik va xususiyliklar xalqlar tafakkur tarzini belgilashda muhim o‘rin tutadi.

Djumamuratov Kuanishbay Azatbay uli (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs tayanch doktoranti; quwanishbay.djumamuratov.97@gmail.com)

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARINING RANG KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING SEMANTIKASIDA BINAR AKSIOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq tillarida so‘zlashuvchilar dunyo aksiologik manzarasidagi rangni baholashda lingvomadaniy o‘xshashlik va farqlar aniqlangan va ularning tarkibida asosiy rang nomlarini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarning materiali: oq, qora, qizil, ko‘k, yashil, sariq ranglar asosiy komponentlar sifatida olingan. Shu bilan birga, o‘rganilayotgan tillarda rangli componentli frazeologik birliklarning baho ma’nolarini shakllantirish asosidagi semantik mexanizmlarning tavsifi ham keltirilgan. Binaraksiologik tahlil orqali rang komponentlarini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarning ijobiy va salbiy baholovchi ma’nolarini aniqlangan. Tahlil ikki tilda – ingliz va qoraqalpoq tillarida ranglarning leksik ma’nolari va madaniy konnotatsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, binar aksiologik tahlil, ijobiy ma’no, salbiy ma’no, rang, oq, qora, qizil, ko‘k, yashil, sariq, his-tuyg‘u, qadriyatlar, o‘xshashliklar.*

---

[1] Маҳмудов Р.Б. Ўзбек тилида авестизмлар. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори дисс., Урганч, 2020, 93-бет.

[2] Henning W.B. The Khwaresmian Language. Zeki Velidi Togan’a Armag‘an. Istanbul, 1955, p. 426, 432.

[3] Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. I, М.–Л., 1958, с. 377–378.

[4] Топоров, В.Н. Исследования по этимологии и семантике. М., “Языки славянской культуры”, 2004, с. 24.

[5] Уразметова А.В. Английская топонимика как лексическая подсистема языка (на материале топонимической лексики Великобритании и США). Дисс… на соискание ученой степени д-ра филол. наук, Уфа, 2016.

[6] Беленькая, В.Д. Очерки англоязычной топонимики. М., “Высшая школа”, 1977, с. 25.